

Ramazonova Iroda Ahmadali qizi

Buxoro viloyati Buxoro tumani

4-umumta'lim maktabi geografiya fan o'qituvchi

Suv-hayot manbai, u dunyodagi eng keng tarqalgan moddalardan biri hisoblanadi. Umumiy zaxirasi 1386 mln km³ deb baholangan. Keyingi vaqtarda insoniyatning suv resurlariga nisbatan munosabati o'zgardi. Bunga sabab chuchuk suvga bo'lgan ehtoyojning ortib borishi, daryo suvlari miqdorining kamligi, ayrim manbalarda bu suv miqdori 48 ming km³ deb qayd etilgan. Mavjud suv resurslaridan faqatgina yarmidan foydalanish imkonи bor, miqdor esa yetarli emasli ekanligi kundan-kunga suvga bo'lgan talabning ortishi, undan yanada oqilona foydalanishga undaydi. Qurg'oqchil o'lkalarda suvga bo'lgan muammoni kamaytirish maqsadida suv omborlari qurilgan . Keyingi paytlarda suv resurslariga bo'lgan talab shahar aholisi jon boshiga oladigan bo'lsak 1 kunda 300-400 litrni tashkil etadi. Shunday ekan o'lkada suv resurslaridan samarali foydalanish yo'llarini takomillashtirishimiz yo'llarini izlab topish dolzarb hisoblanadi.

Ma'lumki, dunyo miqyosida va Markaziy Osiyoda, jumladan O'zbekistonda ham suv resurslari chegaralanganligi hech kimga sir emas. Suv resurslaridan foydalanishda daryolarning gidrologik rejimini boshqarish muhim o'rinn tutadi. Daryo suvidan oqilona foydalanish hamda ularni suvini behuda isrof bo'lmasligi uchun suv omborlari bunyod etiladi. Hozirgi kunda O'zbekiston hududida 53 ta suv ombori barpo etilgan bo'lib, ulardan xalq xo'jaligining turli tarmoqlari va qishloq xo'jalik sohasida foydalanib kelinmoqda. Ularning to'liq hajmi 18.8 km³, foydali hajmi 14.8 km³ ni tashkil etadi. Eng yiriklari Tuyamo'yin, Chorvoq, To'dako'l va Kattaqo'rg'on suv omborlaridir. Mazkur suv omborlaridan yuqorida aytganimizdek kompleks ravishda foydalaniladi.

Ular asosan irrigatsiya, energetika va sanoat maqsadlarga mo'ljallangan. Suv omborlarining tabiiy geografik sharoitlarini, gidrologik xususiyatlarini o'rganish, ulardan samarali foydalanish davr talabi bo'lib, dolzarb muammolardan biri sanaladi.

Jumladan tarixiy ma'lumotlarga ko'ra O'rta Osiyo davlatlari hududida kichik suv omborlari va hovuzlar eski eraning oxiri va yangi eraning boshlaridayoq qurila boshlangan. Turkmaniston, O'zbekiston, Qиргизистон va Qозог'истон kabi mamlakatlarida suvni hududlarda qayta taqsimlash ishlari olib borilmoqda . Bu sohada O'zbekiston Respublikasi yetakchilardan bo'lib, hozirgi kunda mamlakatda yirik irrigatsiya tizimlari barpo etilgan. Respublikamiz bo'yicha jami 17 mingdan ortiq tabiiy suv oqimi mavjud . Amudaryo havzasida ular 9.9 Sirdayo havzasida 4.9 va ushbu daryolar oralig'i 2.9 mingta biroq ularning asosiy qismi uncha katta bo'limgan kichik soylar 10 kmdan ortiq bo'limgan suv oqimlaridir. Bular ayniqsa Amudaryo va Sirdaryo oralig'iga taalluqli.

3– SON / 2022 - YIL / 15 - NOYABR

O'zbekistondagi yirik suv omborlari turli tarmoqlar uchun ishlataladi, shu sababli suv omborlaridan uzoq muddatli foydalanish hamda ularning ishida ro'y beradigan o'zgarishlar keskin loyqalanishga olib keladi. Ma'lumotlarga ko'ra, 11 ta suv ombori loyqadan tozalanishga muhtoj, 5 ta suv omborida suv chiqish chegarasiga yetib qolgan. (O'zbekiston Respublikasida atrof – muhit holati va tabiiy resurslardan foydalanish to'grisidagi Milliy Ma'ruza Toshkent . 2008-2011)

O'zbekistondagi ayrim suv omborlari haqida ma'lumotlar.

1-jadval

Suv omborlari	Daryo	Ishga tushgan yili	Suv sig'imi mln.m ³	Maydoni km ²
Tuyamo'yun	Amudaryo	1979	7300	790,0
Chorbog'	Chirchiq	1978	2000	40,3
Andijon	Qoradaryo	1970	1750	60,0
Tollimarjon	Amudaryo	1977	1530	77,4
To'dako'l	Zarafshon	1983	875	225,0
Kattaqo'rg'on	Zarafshon	1952	845	83,6
Janubiy Surxon	Surxondaryo	1964	800	65,0
Chimqo'rg'on	Qashqadaryo	1964	440	45,1
Ohangaron	Ohangaron	1974	339	8,1
Quyimazor	Zarafshon	1957	306	16,3
Pachkamar	G'uzordaryo	1967	243	12,4
Karkidon	Quvasoy	1964	218	9,5
Tuyabo'g'iz	Ohangaron	1964	204	20,7
Hisorak	G'uzordaryo	1985	170	4,1
Sho'rko'l	Zarafshon	1983	170	17,0
Uchqizil	Surxondaryo	1960	160	10,0
Kosonsoy	Kosonsoy	1954	160	7,6
Jizzax	Sangzor	1962	73,5	12,5
Uchqo'rg'on	Norin	1961	54,0	3,7
Xojikent	Chirchiq	1977	30,0	2,5
Qamashi	Qashqadaryo	1946	25,0	3,4

(Gidrologiya asoslari 2003y. A.R.Rasulov, F.H.Hikmatov, D.P.Ayitboyev)

Bugungi kunda suv omborlarining ba'zilaridan bir yo'la qishloq xo'jaligida, baliqchilik, sanoat va energetika maqsadlarida foydalanib kelinmoqda. Shunga qaramasdan suv omborlarining yechimga muhtoj o'ziga xos muammolari borki ularga ilmiy asoslangan holda ijobiy yondashishni hayotni o'zi taqozo etmoqda. Shu sababli

3– SON / 2022 - YIL / 15 - NOYABR

suv omborlari suvidan samarali foydalishda quydagilarga e'tiborni qaratishimiz lozim.

1. Suv omborlarini loyihalashtirishni ilmiy asosda tashkil etish.
2. Suv omborlaridan amaliy jihatdan uzoq muddatda foydalanish chora - tadbirlarini ishlab chiqish.
3. Suv omborlarining muhofaza zonasini saqlash.
4. Ekogeografik nuqtai - nazardan suv omborlarining atrof - muhitga ta'sirini keskin kamaytirish. 5.
- Ro'y berishi mumkin bo'lgan tezkor loyqalanish jarayonini qisqartirish bo'yicha zarur chora - tadbirlarini ko'rish. 6. Suv omborlaridagi suv sathi dinamikasini muntazam kuzatib borish.
7. Suv omborlaridan xalq xo'jaligining turli tarmoqlarida jumladan qishloq xo'jaligida foydalanishni qat'iy limit asosida tashkil etish.
8. Suv omborlarining gidrologik rejimini samarali boshqarishda mutaxassis kadrlar masalasini ijobiy hal etish va boshqa ko'plab muammolarni ijobiy hal etishimiz lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Hikmatov P.H. Ayitbayev D. Ko'lshunoslik. Toshkent. 2002.
2. Rasulov A. P. Hikmatov P.H Umumi Gidrologiya.Toshkent Universitet.1995.
- 3 .Suv O'zbekiston kelajagi uchun muhim hayotiy resurs. Toshkent 2000 .121
4. Toshev X. R Hikmatova G.I. Egamberdiyev. Suv qadri. Buxoro 2019.
5. Водохранилища чрезвычайные ситуации и проблемы устойчивости Ташкент-2004.УзНУ 5-7b.
6. O'zbekiston Respublikasida atrof – muhit holati va tabiiy resurslardan foydalanish to'grisidagi Milliy Ma'ruza Toshkent – 2008.
7. uz. m. Wikipedia. Org. wiki. Suv omborlari.